SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

# SERTIFIKAT

taqdim etildi:

**XASANOVA NAVBAHOR XAMRAQULOVNA**

maqola muallifi

**MUSIQA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK**

## "Ilmiy va professional ta'lim jarayonida muloqot, jamiyat, fan va madaniyatlar integratsiyasi"

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

(2021, 12-13 Noyabr)

**Rektor** **I.M.Tuxtasinov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI • SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI • SAMARQAND

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI * SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES * 1994

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

# INTERACTION OF COMMUNICATION, SOCIETY, SCIENCE AND CULTURE IN THE PROCESS OF SCIENTIFIC AND PROFESSIONAL EDUCATION

MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

*Samarkand, 12-13 November, 2021*



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

# ILMIY VA PROFESSIONAL TA’LIM JARAYONIDA MULOQOT, JAMIYAT, FAN VA MADANIYATLAR INTEGRATSIYASI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI

12-13-noyabr, 2021-yil

# INTERACTION OF COMMUNICATION, SOCIETY, SCIENCE, AND CULTURE IN THE PROCESS OF SCIENTIFIC AND PROFESSIONAL EDUCATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
MATERIALS

12-13-november, 2021

Samarqand - 2021

## MUSIQA TA'LIMIDA FANLARARO ALOQADORLIK.

Xasanova Navbahor Xamraqulovna
*katta o'qituvchi. Jiz.DPI.*

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida fanlar aloqadorligidan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, imkoniyatlari musiqa darslarining o'ziga xos tuzilish xususiyatlari bilan bog'liq ravishda tahlil qilingan hamda metodik tavsiyalar ilgari surilgan.

Kali*t so'zlar. Fanlararo aloqadorlik, umumta'lim maktablari, musiqa madaniyati, dars, ta'lim, estetik* tarbiya, samaradorlik.

Ma'lumki, musiqa san'ati insonning axloqiy va estetik hissiyotlariga kuchli va betakror ta'sir etish xususiyati bilan pedagogik fanlar tizimida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham ishbu fanni o'qitishda tarbiyaviy maqsadlar bosh vazifa hisoblanadi.

Respublikamizning amaldagi ta'lim tizimida ilmiy o'rta ta'lim eng muhim shakllantiruvchi bosqish bo'ib, o'qitiladigan fanlar tizimida musiqa madaniyati fani o'zining tashkiliy tuzilishi, metodikasi pedagogik hamda ta'limiy maqsad va vazifalariga ko'ra boshqa fanlardan keskin farq qiladi. Bu asosan musiqa darslarining o'zaro bir-biriga bog'liq, bir-birini davom ettiruvchi, to'ldiruvchi va bir maqsadga yo'naltirilgan besh faoliyat negizida uyushtirilishida ko'rinadi.

Fanni o'qitishning yana bir alohidalik xususiyati mazkur faoliyatlarning har biri musiqiy fanlar tuzilmasidagi muayyan fanga oid bilim, tushuncha hamda amaliy ijrochilik malakalarni shakllantirishga tayanadi. Masalan, musiqa tinglash faoliyatida asarlar shakli, tuzilishi, janri, g'oyaviy-badiiy mazmuni, ijrochilik an'analari, uslublari, ko'p ovozlilik xususiyatlari, zamonaviy yoki xalq ijodiga mansubligi, kompozitorlar hayoti,ijodiga oid bilimlarni o'quvchilarga yetkazish asosiy o'rin turadi. Bu o'rinda musiqa asarlari tahlili, musiqa nazariyasiga musiqa tarixi, adabiyotiga oid bilimlariga tayaniladi. Musiqiy asarning badiiy ijrosi bilan bevosita bog'liq lad-tonalligi, o'lchovi, xarakteri, qo'llanilgan dinamik belgilarni sharhlashda musiqa nazariyasiga faniga oid bilimlarga murojaat qilinadi. Darsning "jamoa bo'lib kuylash" faoliyati esa bevosita "Xor va xorshunoslik", "Drijiorlik" fanlari negizida olib boriladi. Musiqa savodi faoliyatida "Musiqaning elementar nazariyasi", "Musiqa asarlari tahlili", "Garmoniya" fanlariga tegishli qonun – qoidalar asosiy o'rin tutadi. Musiqaga ritmik jo'r bo'lishva bolalar cholg'u asboblarida ijro etish faoliyatidan raqs va ritmik harakatlar, amaliy ijrochilik bilan bog'liq pedagogik vazifalar amalga oshiriladi. Ko'rinadiki, bir soatlik dars davomida ya'ni bir musiqit asarni tinglash, qo'shiq ijro etish, ularni badiiy ham nazariy jihatdan puxta o'zlashtirish bir necha musiqiy san'ati va boshqa fan turlariga, shuningdek, adabiyot, jismoniy madaniyat, tasviriy san'at, tarix, san'atshunoslik kabi fanlarga oid bilim, tushunchalar, ma'lumotlar dars maqsadi va vazifalariga ko'ra mazmunan va mohiyatan hamda tarkibiy uyg'unlashadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, musiqa va san'at maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi musiqiy hamda estetik tarbiyaga daxldor fanlarni o'qitilishini o'rganish va tahlil qilish fanlarni o'zato aloqadorlikda tashkil etish va amalga tadbiq etishning didaktik imkoniyatlari ta'limning mazmunli, samarali va sifatli bo'lishida muhim omil hisoblanadi.

Bir qator yetuk olimlar, tajribali pedagoglar va tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra ta'lim mazmuni o'zida asosan to'rt komponentni mujassam etadi;

1. Insonlarni dunyo bilan, bir-birlari bilan munosabatlari, umuminsoniy e'tiqod va milliy qadryatlarning asosi hisoblangan shaxs dunyoqarashi va axloqiy sifatlari majmuasini;

2. O'quvchilar ongida dunyoni dialektik anglashni shakllantiruvchi, ularni ongli faoliyatga to'g'ri metodologik yondashuvga o'rgatuvchi bilimlar tizimini;

3. Aniq faoliyat turlari, jumladan, o'qish, o'rganish, malaka va ko'nikmalar hosil qilishning negizini tashkil qiluvchi umumiy intellektual salohiyatlarni shakllantirishni;

4. Turli muammolar yechimini izlashga, fan sirlarini chuqur anglash, o'ziga kerakli ta'limiy va tarbiyaviy sifatlarni hosil qilishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatning asosli komponentlarini o'zlashtirishni.

Ayni shu to'rtinchi komponent, ya'ni o'quvchilarda ijodiy faoliyat va o'quv ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirib borish barcha o'quv fanlariaro aloqadorlikni tizimli ravishda yo'lga qo'yish, har bir fanni o'ziga yaqin (bir soha, yo'nalish, mutaxassislik, o'quv fanlari bloki) va ijtimoiy gumanitar (tarix, falsafa, pedagogika, psixologiya, milliy g'oya), tabiiy fanlar (matematika, biologiya, geografiya) va boshqa fanlar bilan bog'lab (mavzu mazmuni va mohiyatiga ko'ra) tashkil etish va ulardan maqsadga muvofiq holda, o'z o'rnida foydalanish orqali amalga oshiriladi. Albatta, bu o'rinda shuni unutmaslik kerakki, fanlar aloqadorligi atayin, majburiy va maqsadsiz bo'lmasligi lozim. Aytaylik, jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlari ruhini, siyosiy, ijtimoiy, madaniy voqeliklarni aks ettirgan asarlarni o'rganishda o'sha davrga oid tarixiy-adabiy manbalardan, folklor, mumtoz musiqa namunalarini tinglash, o'rganish jarayonida adabiyot, tarix, ona-tili folklorshunoslik fanlariga mansub ilmlardan, musiqali drama, vokal, xor asarlari, opera, balet, ya'ni,

sahnaviy asarlarga oid bilim va tushunchalarni qo'llashda san'atshunoslik, musiqa tarixi, avtobiografik va badiiy asarlarga tayanib, eng kerakli, qiziqarli, mavzu mohiyatini atroflicha, kengroq, to'laroq, qiziqarliroq yoritish maqsadida zarur ma'lumotlardan foydalanish yaxshi natija beradi, dars mazmunini boyitadi, o'quvchilarni kengroq bilim, tushunchalar olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bularning barchasi umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlarni bosh g'oya va nazariya atrofida yagona tizimda muvofiqlashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

O'quv fanlarini o'zaro aloqadorlik komponentlaridan o'z o'rnida va to'g'ri foydalanishning didaktik maqsadi umumiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllanishida ijobiy samaradorlikka erishish hisoblanadi. Fanlararo aloqadorlikning barcha tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlardagi kabi musiqa madaniyati fani tarkibida mujassamlashgan musiqa san'atiga oid alohida o'qitiladigan fanlarning keng miqyosdagi bog'liqlik jihatlari mavjud. Ular o'z o'rnida darslarni fanlararo aloqadorlikda tashkil etishning keng imkoniyatlarini ham yuzaga keltiradi. Har bir fan yoki soha o'zi alohida holda rivojlana olmasligi haqiqat. Shu bois fanlar va ilm sohalari doimo bir-birlarini to'ldiradi, boyitadi. Ularni bir-biridan ajratish taraqqiyot zanjirini uzish bilan barobardir.

Musiqa darslarini bevosita musiqa san'atiga tegishli fanlar bilan bog'liqlik xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, hech mubolog'asiz aytish mumkinki, musiqiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan oliy o'quv yurtlari o'quv rejasining ixtisoslashgan fanlari sirasiga kiruvchi barcha fanlar o'z o'rnida musiqa darsining u yoki bu komponentida ishtirok etadi, ularning ishtirokisiz musiqa darslarini o'tish aslo mumkin emas. Qo'shiq kuylash faoliyatida vokal-xor ishlari asosiy o'ringa chiqsa, jamoaviy ijroni boshqarishda dirijyorlik fani yordamga keladi. Musiqa savodi faoliyatida garmoniya, musiqa asarlari tahlili, solfedjio fanlariga oid bilimlar asosida ish ko'riladi. Musiqa tinglash faoliyati esa bevosita musiqa asarlari tahlili, musiqa tarixi, sana'atshunoslik, folklorshunoslikka oid manbalar, materiallar va ma'lumotlarga asoslanib ish tutishni taqozo etadi. O'qituvchi tomonidan musiqa asarini chalib berilishi, bolalarning ijroga cholg'u asboblarida jo'r bo'lishi darsning muvaffaqiyatini ta'minlovchi bosh omillardan hisoblanadi.

Ko'rinadiki, musiqa fanini o'z ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini juda keng doiradagi fanlar aloqadorligisiz amalga oshirishni tasavvur etish va bu haqda fikr yuritish ham aslo mumkin emas.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – Toshkent, Ma'naviyat, 2008yil.

2. M.Bo'ronov. "O'zbekistonda ma'naviy-marifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi". Toshkent, Ma'naviyat, 2016yil.

3. N. Hasanova O'zbek milliy musiqa merosi taraqqiyotida xotin-qizlarningo'rni. Актуалный вызыви современной науки IX xalqaro ilmiy konferensiya 26-27 yanvar 2017 yil.

4.Muminova Muqaddas Riskulovna Development And Current Status Of Uzbek Pop Music In Modern Approaches And Innovations Of Teaching The Science Of Music Culture International Journal of Advanced Science and Technology

Vol. 29, No. 8, (2020) https://t.me/joinchat/ - Music teacher, https://infourok.ru - music lessons

5.Hasanova Navbahor Hamraqulovna. (2020). Bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek mumtoz musiqasida kasbiy malakasini oshirish muammolari. Xalqaro ilg'or fan va texnologiyalar jurnali , 29 (08), 3489-34953495.

6.Xolmirzayev, O. (2021). YOSHLAR KAMOLOTI VA MUSIQA: YOSHLAR KAMOLOTI VA MUSIQA. *Журнал дошкольного образования*, 3(3). извлечено от https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2103

7.hasanova, navbahor. (2020). METHODS AI\D WAYS TO DEVELOP THE MUSICAL FEELINGS OF STUDENTS IN TTTE LESSONS OF MUSIC EUITURE. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(42). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5579

8. 2. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi Konsepsiyasi. – Toshkent, XTV, 1995 yil

9.Khasanova,Navbakhor (2020) "The role of music lessons in the formation of national and intercultural competence in students."Mental Enlightemment Scientific-Methodological Journal.Vol.2020 :Iss.2. Article 15.

10. Http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25558

Hasanova, N. K. Possibilities of music education and upbringing in the formation of personal maturity. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied

**Тагаева Т. Б.** К вопросу об образности в творчестве У.С. Моэма (на материале романа “Луна и Грош” ........ 355
**Шукурова Р. Д.** Структурно - семантические особенности бинарных глагольно фразеологических единиц ........ 357
**Эшбеков Б.** Жамиятда фалсафий тафаккур тараққиётида сўз эркинлигини ривожлантиришда мулоқот маданиятининг роли ........ 358
Rofeeva Sh. D. The concept “knowledge” in the English and Uzbek paremiology ........ 360
**Уктамова М. Х.** Дискурс как лингвистический феномен ........ 362
Stepanyan A. An. The role of context in actualization of the meaning of English metaphors ........ 363
**Сулейманова Н.М.** Гапнинг пропозитив структураси ва унинг синтактик шаклланиши ҳақида ........ 365
**Абдурахмонова Д.** Употребление устойчивых словесных комплексов узбекских народных сказок 367
**Мамаякубова Ш.О.** Система смешанного образования современный подход ........ 370
Rustamov A. U. Clippings in English language ........ 372
**Кувандыкова Н. О.** Использование интеллект карт на уроке английского языка ........ 373
O’rinboyeva M. Ya. Ta'lim jarayonini shakllantirishda muzeylarning o‘rni ........ 378
Najiyeva S., Hayitova U. Kichik maktab yoshidagi bolalarning bilingualism mexanizimi asosida til o’rganish salohiyatini rivojlantirish ........ 380
Marufov E. Talabalarning talaffuz ko’nikmalarini takomillashtirish ........ 381
Nomozov A.M. Arab tilining shakllanishi va uning o‘zbekistonda o‘rganilish jarayoni ........ 382
**Абдуллаева С. Б.** Функционирование фразеологизмов с компонентом-зоонимом «утка» в английском и узбекском языках ........ 384
**Жуматов Р.Я.** Ўзбек ва инглиз жой номларида номинация тамойиллари умумийлик ва хусусийлиги ........ 385
**Ахмедшина Ф.**А. Особенности гендерных стереотипов в языке ........ 387
Ibodullayeva M. H. Wedding superstitions in the lives of English and Uzbek people ........ 390
Rakhmonova A.U., Mamarasulova M. A. The usage of personification in Aesop’s fables ........ 392
Sirojiddinova Sh. S. Teaching cultural and ethnic translation concepts texts under international law through content based ........ 393
Karimova N. M. Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning strategiyasi va tamoyillari ........ 395
Mardonova R.O. Similiarities and differences of Uzbek and English sound systems ........ 396
Umirova N. M. Muloqot madaniyatini shakllantirishda nutq normalarining ahamiyati ........ 399
Karimova N. M. Millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik omillari ........ 400
Bozorova M.M., Sindarova D. N., Achilova.G.B. Ingliz va o`zbek tillarida deyksisning implisit holatlari ........ 402
Xasanova N.X. Musiqa ta’limida fanlararo aloqadorlik. ........ 405
**Тоирова Д.Ф.** Тарих адабий жанр ва бааий адабиёт........ 407
**Самиева** С.О. Корбасти услуби илмӣ ва бадеӣ дар асарҳои сотим улуғзода........ 408
Soliyeva **Z.B., Saida’zamova M.** The role of modern technologies in foreign language Teaching and its effectiveness........ 410
Axrorova M.R. O`zbek shoiralari ijodida shaxs erkinligi va ijtimoiy ozodlik motivlari. (Uvaysiy, Nodira, Maxzuna ijodi misolida)........ 411
**Рахматова** С.А. Формирование социокультурной компетенции при обучении иностранному языку........ 413
**Самиев** А.С., **Очилов** Я.С. Ҳадис илмининг тарихий манбалари ва талаба ёшларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда фойдаланиш технологияси........ 415
Soliyeva Z.B., Omonova F.A., Abjalilova E.Sh. The importance of vocabulary in teaching english language........ 418
Xolmurodova D.I., Tursunova Sh. Sh. Teaching and learning in secondary education........ 420
Abdullayev A.A., Rakhmonova Ch.Sh. Some barriers in teaching foreign languages for children........ 422
Sattorova F.E The principle of individualization is as a key factor in teaching and learning foreign languages........ 424
**Бегматов Қ.М.** Чет тили ўқитувчисининг касбий компетентлигини шакллантириш даражалари ва босқичилари........ 425
Boykuziyeva N.X. Lexical-stylistic means in expressing the inner feelings of the characters in the works by s.kinsella........ 426